

QUTB XORAZMIYNING “XUSRAV VA SHIRIN” DOSTONLARI GENEZISGA
DOIR ILMIY TADQIQOTLAR BAYONI**Markabayeva Dilara**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistri,
Xalqaro qishloq xo‘jaligi universiteti assistant o‘qituvchisi
markabayevadi@gmail.com
+998909852612

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17184242>

Annotatsiya Ushbu tezis Qutb Xorazmiyning “Xusrav va Shirin” dostoniga bag‘ishlangan. Ishda asarning badiiy tuzilishi, obrazlar tizimi va ularning badiiy-hissiy funksiyalari, she’riy san’atlar va ularning ifoda vositalari hamda matnning morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, mavzu yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, dissertatsiyalar, maqolalar va tarjima asarlar sintez yo‘li bilan ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot nazariy va metodologik jihatdan adabiyotshunoslik yondoshuvlarini qo‘llagan holda asarning badiiy-til xususiyatlarini hamda ilmiy izlanishlardagi asosiy yo‘nalishlarni aniqlashni maqsad qilgan.

Kalit so‘zlar. Qutb Xorazmiy; “Xusrav va Shirin”; badiiy tuzilish; obrazlar tahlili; she’riy san’atlar; morfologiya; leksika; sintaksis; xorijiy tadqiqotlar; mahalliy tadqiqotlar; dissertatsiya; maqola; tarjima; adabiyotshunoslik.

Аннотация. Данная тезис посвящён поэме Кутба Хорезми «Хосров и Ширин». В работе подробно анализируется художественная структура произведения, система образов и их эстетико-эмоциональные функции, поэтические приёмы и выразительные средства, а также морфологические, лексические и синтаксические особенности текста. Кроме того, рассматриваются научные исследования зарубежных и отечественных учёных — диссертации, статьи и переводы, связанные с данной темой. Исследование, опираясь на теоретико-методологические подходы литературоведения, ставит целью выявление художественно-языковых особенностей поэмы и основных направлений существующих научных изысканий.

Ключевые слова. Кутб Хорезми; «Хосров и Ширин»; художественная структура; анализ образов; поэтические приёмы; морфология; лексика; синтаксис; зарубежные исследования; отечественные исследования; диссертация; статья; перевод; литературоведение.

Abstract. This thesis is devoted to Kutb Khorezmi’s poem “Khusraw and Shirin.” The study provides a detailed analysis of the artistic structure of the work, the system of characters and their aesthetic-emotional functions, poetic devices and expressive means, as well as the morphological, lexical, and syntactic features of the text. In addition, it reviews scholarly research conducted by both foreign and local academics — including dissertations, articles, and translations — related to this topic. Based on theoretical and methodological approaches of literary studies, the research aims to identify the artistic-linguistic features of the poem and to outline the main directions of existing scholarship.

Keywords. Kutb Khorezmi; “Khusraw and Shirin”; artistic structure; character analysis; poetic devices; morphology; lexicon; syntax; foreign research; local research; dissertation; article; translation; literary studies.

Milliy adabiyotimiz xalqimizning xazinasini hisoblanadi. Bu adabiyotning yorqin va ko'zga ko'ringan namoyondalari har davrda ham bo'lgan va o'zlaridan milliy, ma'naviy meroslar qoldirgan. Zamonamizning yozuvchi va shoirlarini ijodlarini o'rganish, jahondagi boshqa ijodkorlar bilan ishlarini solishtirib ko'rish, badiiy ijodda qilgan yangiliklari va uslublarini o'rganish adabiyotshunoslarning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Iste'dodli o'zbek shoiri Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoni Nizomiy Ganjaviyning shu nomli asarining turkiy tilga erkin ijodiy tarjimasi hisoblanadi. Doston ozarbayjon va o'zbek xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni, o'zbek adabiyoti tarixini, ayniqsa, o'zbek adabiy tili tarixini, uning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda juda katta ahamiyatga ega. Qutb o'z asarida Nizomiy dostonining g'oyaviy-badiiy yuksakligini, uning asl mohiyatini saqlagan holda unga ancha yangiliklar kiritgan, uni XIV asr hayotiga doir voqealar, aholisi - turli tabaqalarning hayotiga va tabiat tasviriga bag'ishlangan lavhalar bilan boyitgan asl (nusxa) asar darajasiga ko'targan. Shuningdek, mazkur asar Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridan keyin turuvchi turkiy tilda yozilgan asar sanaladi. Asarda Qutbning ham tarjimon, ham ijodkor sifatidagi mahorati, dostonning turkiycha qiyofasi va badiiy tasvir bilan uyg'unligi yaqqol namoyon bo'lishi adabiyotshunoslikda, xususan, mumtoz adabiyotda alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'rganilmagan, ilmiy tadqiq qilinmagan jihatlari ko'p. Ushbu tadqiqot obyekti hisoblangan dostonning turkiycha qiyofasi va poetik tasvir bilan uyg'unligi bugungi kunda ham dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Tadqiqot ishini o'rganish jarayonida ko'plab ilmiy manbalar asos qilib olindi. Avvalo, adabiyotshunoslikka oid asarlar tahlil qilinib, mumtoz adabiyot yuzasidan yozilgan ilmiy tadqiqotlar ko'rib chiqildi. Adabiyotshunoslikka oid mumtoz manbalardan Nizomiy Ganjaviyning "Panj ganj" asar va uning erkin tarjimasi bo'lgan Qutb Xorazmiyning "Xusrav va Shirin" asari haqida ilk ma'lumotlarni E.Bertels asarida ma'lumot keltiriladi. Undan keyingi yillarda rus tadqiqotchilar A.Zayonchkovskiy Qutb matnini tahlilini amalga oshiradi. Tojikistonlik olim E.Nadjib 1979-yilda asarning syujet taraqqiyot ustida izlanishlar olib boradi. Tataristonlik olim X.Minnegulov 1976-yilda Qutb asarini tarjima asar deyilishiga qarshi ekanligi haqida ilmiy tadqiqot olib boradi. 1982-yilda N.Komilov Qutb dostonini g'oya va obrazlari qayta jonlangan, yuksak darajadagi tarjima asar deb baholaydi va bu haqida maqola nashr ettirtiradi. Shuningdek, tadqiqot ishimiz bilan bog'liq Qutbning "Xusrav va Shirin" dostoniga aloqador qilingan nomzodlik dissertatsiyalaridan, xususan, tataristonlik I.Muhametniyazovning 2009-yildagi rus tilidagi fan nomzodlik dissertatsiyasida, 1946-yildagi N.Tohirjonovning, 1994-yildagi M.G'anixonovning nomzodlik dissertatsiyasida, rossiyalik tadqiqotchilar R.Juzmuhammedov va M.Idelbayevlarning rus tilidagi maqolalarida ushbu asar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bundan tashqari, Nasimxon Rahmonov kitoblari, Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarlari, zamonaviy adabiyotshunoslikdan Dilmurod Qur'onovning asarlari, Yoqubjon Is'hoqov, Dilnavoz Yusupova, asarlaridan keng foydalanildi. Adabiyot nazariyasiga oid asarlardan, asosan, obraz turlari haqidagi qarashlar o'rganildi. Keng ma'nodagi va tor ma'nodagi badiiy obrazlar farqlanib, ularning predmetlilik darajasi, badiiy umumlashtirish darajasi, ifoda va tasvir planlari munosabatiga ko'ra turlarining o'z ichida yana bo'linishi anglashildi. "Xusrav va Shirin" dostonlari genezisga doir ilmiy tadqiqotlar ko'rib chiqilib, Xusrav va Shirin, Farhod obrazlari va unga yondosh obrazlarning genezisi o'rganilib, lirikada qay tarzda ifodalanganligi o'rganildi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Бертелъс Е. Избранные труды. Том 4. Навои и Джами. – Москва: Наука, 1965. – С. 283-368.
2. Зайончковский А. Старейшая тюрская версия поэмы “Хусрав и Ширин” Кутба. – [Ленинград: Знания](#)
3. Неджип Э. Историко-сравнительный словарь тюрских языков XIV века. [Душанбе: Красный окт.](#) Комилов Н. Хорезмская школа переводчиков . Зарубежная литература. 1982. С.31.
4. Тохиржонов А. Кутбнинг “Хусрав ва Ширин” асари. Татэр эдебияти 1-том. – Казань: Наука, 1965. – С. 68.
5. Ганиханов М.А. Сравнительный анализ поем “Хусрав и Ширин” Низами и Кутба. Автореферат дисс, Ташкент. 1994. С. 3.
6. Р.Юзмухамедов. Религиозно-Мифологическая и научная картина мира в поэме Кутба “Хосров и Ширин”. Казань. 2008. С. 5.
7. М. Идельбаев “Хосрав и Ширин” Кутба-Общeturский литературный памятник XIV столетия. Казань. 2016. С. 6.
8. Насимхон Раҳмонов. Ўзбек адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма – Тошкент: Сано-стандарт, 2017 й. – Б.168.
9. Навоий Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 16-жилд. – Тошкент. Фан, 2000. – Б. 515.
10. Д.Куროнов. Адабиётшуносликка кириш.- Тошкент. www.ziyouz.com kutubxonasi, 2015.
11. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон , 2014. – 320 б.
12. Юсупова Д. Аруз вазни қоидалари ва мумтоз поетика асослари. – Тошкент:Таълим-медиа . 2019.